

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TASVIRIY SAN'AT FANLARINI
O'QITISH SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA YANGI
PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

*Urganch davlat universiteti “Tasviriy san’at va
muhahdislik grafikasi” kafedrasи katta o‘qituvchisi
Karimov Xamidbek Otaxanovich*

Maqolada yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodlari, talabalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish, ularda tasviriy san’atga nisbatan qiziqish uyg‘otish metodlari xususida so‘z boradi.

Tayanch so‘zlar: mustaqil ta’lim, pedagogik texnologiya, multimedia, noan’anaviy ta’lim, kasbiy ta’lim, kompozitsiya.

Bugungi kunda oliv o‘quv yurtlarida tasviriy san’at fanlarini o‘qitish sifati va samaradorligini oshirishda ko‘p hollarda talabalarining ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirmaydigan, ularda axborot bilan ishlash va undagi asosiy mazmunni aniqlash, tahlil qilish va bir tizimga keltirish malakalari shakllanishiga ko‘maklashmaydigan ta’limning reproduktiv metodlaridan keng foydalanilmoqda. Zamonaviy mutaxassisdan esa faqat o‘z sohasining bilimdoni va shu yo‘nalishdagi axborotlarni egallaganlik bilan bir qatorda, ulardan har xil kasbiy vaziyatlar yuzaga kelganda o‘rinli foydalana bilish ham talab qilinadi.

Oliy o‘quv yurtlari talabalariga tasviriy san’at fanlarini o‘qitish sifati va samaradorligini oshirishda zamonaivi turli metodlardan foydalanib mashg‘ulot olib borish dolzarb muammo sifatida qaralishi zarur. Oliy o‘quv yurtlari talabalariga ushbu imkoniyatlardan unumli foydalanish uchun birinchi navbatda fanning mazmunini talabalarни bilish va o‘zlashtirish xususiyatlarini hisobga olgan holda ular uchun qiziqarli tarzda tuzilishiga alohida e’tibor qaratishimiz kerak. Bularni amalga oshirish uchun mavzularni yoritishda, talabalar bajaradigan mashqlar va topshiriqlarni tuzishda hozirgacha shakllanib, eskicha ko‘rinishdagi qoliplardan voz kechib, noan’anaviy usullardan, talabalarining qiziqishlari va ijodkorliklarini oshiradigan uslublarni izlashimizga to‘g‘ri keladi. Tasviriy san’at fanlarini o‘qitish sifati va samaradorligini oshirishda fanlarning xususiyatiga ko‘ra turli uslublardan, mashq va topshiriqlardan foydalanishimiz uchun katta imkoniyatlar mavjud. Lekin shular asosida foydalangan metodlarning natijaviyligini asoslab, aynan o‘quv qo‘llanmalar, metodik ta’minoti deyarli yaratilmayapti. Dunyoda har yili yuz minglab kitoblar, jurnallar chop etiladi, minglab ilmiy tadqiqot dissertatsiyalar himoya qilinadi, Internet global tarmog‘idagi axborotlar oqimini amalda o‘lchab bo‘lmaydigan darajada o‘sib bormoqda. Ommaviy ta’limning bunday sharoitida, qanday qilib zamonaviy talablarga, ta’lim standartlari talablariga mos mutaxassislarni tayyorlashni ta’minlash kerak?

Ilmiy-texnik taraqqiyot jadallashuvi davrida, XX asrning ikkinchi yarmida paydo

bo‘lgan «Pedagogik texnologiya» fani mazkur muammoni yechadi. Ommaviy ta’lim sharoitida, pedagogik texnologiyalar – har bir bosqichi va har bir elementi jiddiy asoslangan, ob’ektiv tashxislanishiga, kafolatlanuvchi pirovard natijaga mo‘ljallangan - pedagogik jarayonni tuzish va ro‘yobga chiqarish imkoniyatini beradi. Pedagogik texnologiyalar, zamonaviy jamiyatning ta’lim tizimida bevosita ishlab chiqarish kuchiga aylanadi. Oliy ta’limdagi innovatsiya jarayonlari xarakteri kiritilgan yangilikning xususiyatla ii pedagoglarning kasbiy imkoniyatlari, yangilik kiritish tashabbuskorlari va ishtirokchilarning innovatsion faoliyatlar xususiyatlari bilan belgilanadi. V.A.Slastenin, M.M.Levina, M.Ya.Vilenskiy, o‘zbek olimlaridan J.G.Yo‘ldoshev, R.J.Ishmuxamedov, U.Tolipov, N.Sayidaxmedov, N.N.Azizzodjayeva va boshqalar tomonidan bu muammolarning yechimi ustida izlanishlar olib borilgan va hozirdaham tadqiq qilinib kelinmoqda.

Ta’lim muassasa larida talabalarning ijodiy faoliyatlarini rivojlantirish sohasida ijobiy natijalarga erishishga imkon beradigan faol ta’lim berish usullarini amalda tatbiq qilish ustida ijobiy ishlar qilingan.

B.B.Boymetov o‘quv mashg‘ulotlarida asosan milliy naqshlarni chizishni taklif etgan bo‘lsa³, R.K.Rajabov ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun ustoz- shogird tizimida talabalar bilan individual ishlashga⁴ ko‘proq urg‘u beradi. S.F.Abdirasilov «pedagogik texnologiyaning ahamiyati avval o‘zlashtirgan nazariy bilimlar bilan yangi o‘zlashtiriladigan bilimlar orasida mustahkam bog‘lanishlarining yuzaga kelishi bilan belgilanadi», deb ta’kidlaydi. K.M.Gulyamovning ilmiy tadqiqot ishi keyingi vaqtida innovatsion texnologiyalarning ta’lim-tarbiya jarayoniga keng tatbiq qilinishi, ta’lim mazmunini boyitish, uni takomillashtirish va o‘quvchilar bilimini o‘zlashtirishda jadallashtirish, hamkorlik hamda yakka tartibda ta’lim olish va ta’limni kompleks loyihalashtirish muam- molarini echishga qaratilgan. Bu jarayonda shaxs o‘zining fikri, diqqat-e’tibori va ayni paytdagi hissiy kechinmalarini ish faoliyatining samarali bo‘lishi tomonga yo‘naltiradi. Sub’ekt-ob’ekt munosabati asosida qaytar aloqa o‘rnataladi. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida o‘zaro hamkorlik, «ustoz-shogird» munosabatlari qaror topadi.

O‘qituvchi o‘zining bajargan kompozitsiyasi va erishgan yutug‘idan qoniqish hosil qiladi. Ma’lum bir muvaffaqiyatga erishish esa yangi kuch, o‘z iqtidoriga ishonishning omili bo‘lib xizmat qiladi. Shaxs manfaati jamiyat manfaati bilan tobora uyg‘unlashib boradi. Hozirgi kunda shubhasiz eskirgan pedagogik usullar yordamida yangicha sifatli ta’lim olish mumkin emas. Ta’lim jarayoni zamon bilan hamnafas yangi innovatsion Ma’lum bir muvaffaqiyatga erishish esa yangi kuch, o‘z iqtidoriga ishonishning omili bo‘lib xizmat qiladi.

Shaxs manfaati jamiyat manfaati bilan tobora uyg‘unlashib boradi. Innovatsion pedagogik jara-yonning muhim unsurlari shaxsning o‘z-o‘zini boshqarishi va o‘z-o‘zini safarbar qilishi hisoblanadi. Uning eng muhim yo‘nalishlaridan biri talabalarning

bilish faoliyatini rivoj- lantirish bo‘lib, u talabalarning o‘quv ishlarini faollashtirish va kasbiy ixtisoslashuvining faollashuviga olib keladi. Zamonaviy ta’limni matn, grafika, video va multiplikatsiya va shu bilan kompyuterni o‘quv jarayonida qo‘llash imkonini oshiradigan multimedia texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Taklif qilinayotgan tasvirni ko‘rish bilan birga talabaning obrazli fikrlashi materialni yaxlit qabul qilishiga yordam beradi.Ularda nazariy va ko‘rgazmali materiallarni o‘zaro mujassamlashtirish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Ko‘rgazmali axborot ishlatilganda, tasavvur hosil bo‘lishi og‘zaki bayondan ko‘ra o‘rtacha 5-6 marotaba tezroq kechadi. Insonning ko‘rgazmali axborotdan ta’sirlanishi, og‘zaki axborotdan ko‘ra ancha yuqori bo‘ladi. Ko‘pchilik hollarda u oxirgisini o‘tkazib yuboradi. Ko‘rgazmali axborotni qayta takrorlash oson va aniqroqdir. Odamning ko‘rgazmali axborotga ishonchi og‘zaki axborotdan ko‘ra yuqori bo‘ladi. Shuning uchun «yuz bor eshitgandan ko‘ra, bir bor ko‘rmoq afzalroqdir» deb bejiz aytilmagan.

Tasviriy san’at o‘quv jarayonida mashg‘ulot mavzusiga doir bilimlarni mustahkamlash va fikrlashini rivojlantirish maqsadida innovatsion ta’lim texnologiyalari (loyiha), interfaol metodlar (aqliy hujum, tushunchalarni aniqlash, chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi) hamda (Klaster, B-B-B chizmasi, «Nima uchun» chizmasi, «Taqdimot strategiyasi» kabi grafik organay-zerlardan unumli foydalanish mumkin.

Yo‘nalishiga ko‘ra talabalarning pedagogik intellekt darajasi, kasbiy layoqatini aniqlashga qaratilgan turli nostandard testlardan foydalanish kompyuter vositalari orqali amalga oshiriladi. Bunda testli vazifalar faqat so‘zlar ifodasi emas, balki animatsiyali lavhalar ko‘rinishida bo‘ladi. Kompyuter texnologiyalarini qo‘llab ishslash juda qiziqarli bo‘lib, ular tomonidan bajonidil qabul qilinadi, talabalar shaxsiy xislatlari tarbiyalanadigan jiddiy ijodiy faoliyatlarga jalb qilinadi.

Darslar quyidagilarga asoslansa yanada samarali bo‘ladi:

- mashg‘ulotni hikoya, ma’ruza taqdimotlari, yangi materialni reproduksiyalar ko‘rinishidanamoyish qilish kabi multimedia chiqishlar bilan o‘tkazish;
- auditoriya, kutubxona yoki uydagi shaxsiy kompyuterdan foydalanib mashg‘ulotlarga tayyorlanish, uyga vazifani bajarish – axborotlar to‘plash, matn ustida ishslash, multimedialar yaratish;

-
- ¹ Vishnyakova N.F. Kreativnaya psixopedagogika. Psixologiya tvorcheskogo obucheniya. – Minsk, Izd. NIORB «Poli Big», 1995. –S. 129.
 - ² Slastenin A.A. Professionalizm uchitelya kak yavlenie pedagogicheskoy kultury. // «Pedagogicheskoe obrazovanie i nauka», 2004, № 5.
 - ³ Boymetov B. Qalamtasvir. / Pedagogika institutlari va universitetlari uchun o‘quv qo‘llanma. – T.: TDPU, 1997. -55-56-b.
 - ⁴ Rajabov R.K., Sultonov H.E. Tasviriy san’at faninio‘qitish metodikasi. / O‘quv qo‘llanma. – T.: TDPU, 2008.-123-b.

-talabalarning auditoriyalar, kichik guruharda bajaradigan vazifalari va mustaqil ishlarini kompyuterda bajarishni tashkil etish; bu ta'limga xususiy yondashishni yuqori darajada amalga oshirish imkonini beradi;

-ta'lim jarayonining optimal variantini tanlash, uning samaradorligini oshirish, o'qituvchi va talabalardagi ortiqcha yukni bartaraf etish; bu fanlararo o'zaro bog'liqlik tasviriy san'at asarlarini qabul qilishning samarali shakllanishi uchun katta ahamiyatga ega.

Innovatsion texnologiyalar yordamida tasviriy san'at asarlarini kengroq va yaxlit idrok etish uchun imkon beradigan mashg'ulotlarga ko'proq diqqat qaratiladi. Kompyuterlar orqali tasviriy san'at asarlarini tahlil qilish, muzeylar bo'ylab virtual sayyohatlar uyushtirishda har xil ovozli matnlar, musiqa, animatsion bezaklardan foydalanish tasviriy san'at, adabiyot, musiqa va badiiy ijodkorlik, innovatsion texnologiyalarning o'zaro bog'liqligini amalda sinash mashg'ulotlarda talabalarning faoliyatini jondorishga xizmat qiladi.

Ta'limning o'zaro bog'liqligi talabalardagi bilim olish va san'atga qiziqishlarini oshiradi. Material mazmuni hamda yangicha ta'lim usullari ta'sirida talabada fikrlash, izlanish, yangiliklarni ocha olish, asoslash, tatbiq etish, kompyuterda bilim olish vositasi sifatida munosabatda bo'lish ko'nikmalari rivojlanadi, mustaqil ijodkorlik tajribasi oshadi. Yangi avlod multimedia texnologiyalari bilan faol shug'ullanganda talabalardagi san'at asarlarini idrok qilish tezroq shakllanadi.

Tasviriy san'at mashg'ulotlarida innovatsion texnologiyalarning faol qo'llanilishi talabalardagi tasviriy san'at asarlarini idrok etish qobiliyatlarini shakllantirish, kompyuter dasturlari bilan ishlash faoliyatini rivojlantirish, bilim va ko'nikmalarning ma'naviy ahamiyatini oshirishga yordam beradi.

Bugungi kunda kompyuter texnologiyasi ta'limning yangi mazmuni va shaxs rivojlanishiga muvofiq bilimlarni beradigan asosiy vosita hisoblanadi. Bu vosita talabada qiziqish bi-lan o'qish, axborot manbalarini topish, yangi bilimlarni o'zlashtirishda mustaqillik va mas'uliyat hissini tarbiyalaydi, intellektual intizomni rivojlantiradi.

Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish, ta'lim oluvchilarning mustahkam nazariy bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ijodiy faoliyatlarini rivojlantirish, ularning kasbiy mahoratga aylanishini ta'minlash maqsadida o'qitish jarayonida yangi pedagogik innovatsion texnologiyalardan foydalanish davr taqozosi bo'lib, ijtimoiy zaruriyat sifatida kun sayin dolzarbli oshib bormoqda. Ta'lim jarayoniga bu texnologiyalarni tat biq etish kadrlar tayyorlashga yo'naltirilgan umumiylar jarayon mazmunining sifat jihatdan o'zgarishini ta'minlaydi. Yangi pedagogik texnologiya nazariyasi g'oyalaridan foydalanish asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalash borasidagi ijtimoiy buyurtmaning bajarilish holatining sifat ko'rsatkichiga ega bo'lishiga turtki bo'ladi. Ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonidagi barkamol shaxs va malakali mutaxassislar faoliyatlarining rivojlanishi ijtimoiy taraqqiyot tezlashuviga olib keladi.

Buni tushunib etgan ko‘plab pedagoglar tasviriy san’at mashg‘ulotlarida innovatsion texnologiyalarni qo‘llashda kompyuter vositalaridan unumli foydalanib kelishmoqda. Ular bu vositalar orqali mavzuga oid «mahorat darsi», jahon muzeylariga sayohat, buyuk rassomlar asarlari tahlillaridan iborat videotasmalar namoyishi, grafik organayzerlar, nostandart testlardan foydalanishadi. Shu jumladan, pedagogning shaxsan o‘zi kompozitsiya yaratish jarayonini amalda ko‘rsatib, mashg‘ulotlarning qiziqarli bo‘lishiga erishmoqdalar.

1. *Proyektorlardan foydalanish matnlar bilan ishlash, o‘rgatuvchi videotoroliklar namoyish etishda qulaylik yaratadi, ko‘rgazmalilikni oshiradi, vaqt ni tejaydi.*

2. *Elektron ensiklopediyalar bilan tanishish, jahon muzey va ko‘rgazma zallari bo‘ylab virtual sayohatlar uyushtirish imkonini beradi.*

3. *Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish talabalarning internet orqali axborotlar izlash, topish, tanlash va olingan ma’lumotni jamlash kabi mustaqil ishslash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.*

4. *Testlardan foydalanish nafaqat vaqtadan yutish, materiallar sarfini kamaytirish, balki o‘z bilimi va imkoniyatlarini ob‘ektiv baholashga imkon beradi. Mashg‘ulotlarda kompyuter texnologiyala rini qo‘llash talabalarning tasviriy san’atga qiziqishlari va ta’lim sifatining oshishiga olib keladi.*

5. *Tasviriy san’at mashg‘ulotlarida kartinalar, chizmalar, jadvallarni yorqin va qiziqarli shakllarda kuzatish, ob‘ektlarni foto va videotasmalar vositasida ko‘rish, u yoki bu mavzudagi materialni aniq idrok etish, tanlangan materialni qiziqarli shaklda tasvirlashga yordam beradi.*

Shunday qilib, mashg‘ulotlarda va darsdan tashqari vaqtarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish vaqt ni tejash, shaxsiy ijodkorlikni rivojlantirish, psixologik-pedagogik bilimlar asosida o‘quv-tarbiyaviy faoliyatni to‘g‘ri tashkillashtirishga imkon yaratadi. Bundan tashqari, tasviriy san’at darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish:

- talabalarning idrok qilish faoliyatini rivojlantiradi va o‘quv jarayonini faollashtiradi;
- qisqa vaqtida katta hajmdagi ishlar bajariladi;
- talabalar nazariy bilimlarini tekshirish jarayonini tezlashtiradi;
- bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlaydi;
- darsdan tashqari vaqtarda talabalarni faol ijodiy faoliyatga yo‘naltirishga sabab bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. Abdirasilov S.F., Nurto耶ev O‘.N. Umumiyo‘rtta ta’lim maktablarida tasviriy san’at fanini o‘qitish texnologiyasi. – T.: TDPU, 2015. -11-b.
2. Azizzodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.:

«Moliya», 2003.

3. Vishnyakova N.F. Kreativnaya psixopedagogika. Psixologiya tvorcheskogo obucheniya.– Minsk: Izd. NIORB «Poli Big», 1995. –S. 129.
4. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. –T.: «O‘qituvchi», 2004.
5. Rajabov R.K., Sultonov H.E. Tasviriy san’at fanini o‘qitish metodikasi. – T., 2008. -123-b.
6. Slastenin V.A., Isayev I.F., Miščenko A.I., Shiyanov E.N. Pedagogika. / Uchebnoe posobie dlya studentov pedagogicheskix uchebnyx zavedeniy. – M.: «Shkola-Press», 1997.–S. 298-301.
7. X.O.Karimov. N.R. Atayeva. O‘quvchilarni ijodiy tasavvurlarini rivojlantirishda tasviriy san’at mashg‘ulotlaring io`rni. <https://academiaone.org/index.php/7/issue/view/43>